Xonova Nodira Fazliddinovna	



O'zbekistonning investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish yo'llari.....	1093
Sotimov Yunusbek Turg'unboy o'g'li	
"Yashil" sanoat siyosatini yuritish zaruriyati: bozor nuqsonlaridan milliy xavfsizlikkacha.....	1198
Muqimov Sherali Axmadali o'g'li	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatining hozirgi holati tahlili va rivojlantirish istiqbollari.....	1103
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
Improving the Methodology of Econometric Analysis of the Efficiency of Financial Activity of Agricultural Agroclusters of Uzbekistan.....	1108
Ochilov Ilhom Sayitkulovich	
O'zbekistonda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "Uglerod neytralligiga erishish" strategiyalarining ahamiyati	1116
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li, Bazarov Shodi Abdirahmonovich	
Oziq-ovqat mahsulotlari brend qiymatini oshirishda marketing strategiyalari.....	1123
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системе Республики Узбекистан	1129
Рузибоева Нилуфар Тулкин кизи	
Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun mintaqaviy siyosat vositalarining xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1135
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion marketingning o'rni va mohiyati.....	1142
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1146
Samandarova Difuza Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari: mavjud muammolar va yechimlar.....	1153
Fatilloev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlili.....	1158
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llari ("Agrobank" ATB misolida).....	1167
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1172
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi va xorijda tog' turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash	1177
Mavlanov G'olibjon Muhammad o'g'li	
Improving The Effective Use Of Local Taxes And Levies In Tashkent City	1182
Shahzad Zokhidov	
Совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога	1186
Мухиддинов Талат Шайдулло угли	
Tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi.....	1189
I. M. Kamoliddinov, To'khtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish xususiyatlari.....	1194
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish.....	1199
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1203
Ahrorov Farhod Baxriddinovich	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashtirishdan foydalanish.....	1208
Muhitdinov Asror Akobirovich	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari	1213
Djumayev Zayniddin Axmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari	1219
Tursunov Nozimjon Nosirovich	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
Saida Yuldasheva	
The Contribution of Ecotourism in Developing Gdp in Uzbekistan	1227
Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husanboy Bahromjon o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li	
Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o'rni.....	1231
Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna	
O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va undagi asosiy o'zgarishlar tahlili.....	1237
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	



Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'llari.....	1245
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан	1250
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	
O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budjet daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1254
Ikramov Ravshan Amanbayevich	
Uzum-vinochilik mahsulotlari bozorida eksportni diversifikatsiyalash strategiyalaridan foydalanish	1261
Azadova Bonuposhsha Alisher qizi	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari.....	1266
Sadikov Iskandar Gayratovich	
Milliy soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirishda ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	1272
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari.....	1277
Qorriyeva Shahnoza Safarboyevna	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	1281
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	
Xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning ahamiyati va zaruriyati	1284
Mirzayev Qulmamat Janzakovich, Djurakulov Shoxrux Baxtiyorovich	
Yog'-moy korxonalarining xom ashyo ta'minotini amalga oshirishning zamonaviy konsepsiyalari	1289
Jo'rayeva Nodiraxon Qurbonova	
O'zbekistonda mulkdorlar sinfini shakllantirishning ilmiy-metodologik yo'nalishlari va rivojlanish bosqichlari.....	1294
Berkinov Bazarbay Berkinovich	
O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlanishi istiqbollarini ta'minlash omillari.....	1300
X. I. Boyev	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarishda jahon tajribasi.....	1305
Saipova Dilnoza Shuxratovna	
Mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirish indikatorlarining iyerarxiyasi.....	1310
Muhammadiyev Sardorbek Shokir o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy qarorlarni qabul qilishning muhimligi.....	1315
Allayarov Shamsiddin Amanullaevich, Yoqubov Madaminbek Abdurahim o'g'li	
Mehmonxonalarda boshqaruv tizimi va uni takomillashtirish.....	1320
Qalandarova Gulnoza, Botirova Zumrad	
O'zbekistonda maktab va maktabgacha talim tizimini moliyashtirishni takomillashtirish.....	1324
Boltaboyev Murodbek Aybekovich	
Mehnat resurslarini samarali boshqarishda jahon tajribasi.....	1329
Xonnazarova Dilobar Qutbiddin qizi, Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI BOSHQARISHDA JAHON TAJIRIBASI

Saipova Dilnoza Shuxratovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amazon, Tesla, Google, Siemens va Samsung kabi yirik kompaniyalarning faoliyatini tahlil qilish asnosida ularning texnologik yangiliklarni joriy etish, yangi bozor tendensiyalarini qo'llab-quvvatlash, innovatsion madaniyatni shakllantirish, raqamli texnologiyalarga investitsiya kiritish, raqamli platformalarni joriy etish amaliyoti va yangi biznes modellarini ishlab chiqish strategiyalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, innovatsion faoliyat, texnologik investitsiyalar, innovatsion madaniyat, raqamli transformatsiya, raqamli platformalar, yangi biznes modellari, jahon tajribasi, xorijiy kompaniyalar.

Abstract: This article analyzes the activities of large companies such as Amazon, Tesla, Google, Siemens, and Samsung in terms of their implementation of technological innovations, support of new market trends, formation of an innovative culture, investment in digital technologies, implementation of digital platforms, and new business strategies for developing models are considered.

Key words: Digital economy, innovative activity, technological investments, innovative culture, digital transformation, digital platforms, new business models, world experience, foreign companies.

Аннотация: В данной статье анализируется деятельность таких крупных компаний, как Amazon, Tesla, Google, Siemens и Samsung, с точки зрения внедрения ими технологических инноваций, поддержки новых тенденций рынка, формирования инновационной культуры, инвестиций в цифровые технологии, внедрения цифровых платформ. и рассматриваются новые бизнес-стратегии разработки моделей.

Ключевые слова: Цифровая экономика, инновационная деятельность, технологические инвестиции, инновационная культура, цифровая трансформация, цифровые платформы, новые бизнес-модели, мировой опыт, зарубежные компании.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan bir qatorda, innovatsion faoliyatning ahamiyati ham ortib bormoqda. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish orqali tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko'maklashish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Sanoatda raqobatbardoshlik va mahsuldorlikni oshirish bosqichlarini tadqiq qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini asoslash yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va eksport tarkibida ulushni oshirish, innovatsion texnologiyalar va ilg'or boshqaruvni qo'llashni kengaytirishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashdan iboratdir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali mexanizmlar o'z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi ham iqtisodiy taraqqiyot yo'lida to'siq bo'lmoqda", ^[1] deya ta'kidlagani tadbirkorlik sohasida innovatsion faoliyatni boshqarishda ko'plab murakkabliklarni keltirib chiqarayotganligi, bu murakkabliklar orasida texnologik yangilanishlarni tezda qabul qilish, yangi bozor tendensiyalarini o'zlashtirish va korxona ichida innovatsion madaniyatni shakllantirish masalalari muhim o'rin tutadi. Bunday sharoitda, jahon amaliyotini o'rganish va eng yaxshi tajribalarini qo'llash, korxonalar uchun katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarishning jahon tajribasidan foydalanishning nazariy yondashuvlari bir qator mahalliy va xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Xususan,

U.F.G'ofurova va B.X.Xayitboyevning "Tadbirkorlikni innovatsion faoliyat asosida rivojlantirishning yo'llari" nomli ilmiy maqolasida tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirishda innovatsion g'oyalar va yangiliklar yaratilishi hamda ularning amaliyotda qo'llanilishi keng yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimizda faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga to'sqinlik qiluvchi qator tizimli muammolar yoritilib ularga takliflar keltirilgan ^[2].

E.I.Ergashev, M.Z.Yuzbayeva va B.U.Charshanbiyeva "O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish yo'nalishlari" nomli ilmiy maqolasida mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning innovatsion shart-sharoitlari va omillari bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etilgan hamda tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirishning mavjud muammolari o'rganilgan. Shuningdek, maqolada tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirishga doir tizimli islohotlar samaradorligi baholangan va mavjud imkoniyat va shart-sharoitlar ta'sirida mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan ^[3].

J.A.Shumpeter (1934) "The Theory of Economic Development" nomli asarida innovatsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy kuchi sifatida ko'rib, korxonalar faoliyatida yangiliklar olib borish zarurligini ta'kidlaydi. Uning "kreativ halokat" konsepsiyasi raqamli iqtisodiyot sharoitida ayniqsa dolzarbdir, chunki yangi raqamli texnologiyalar doimiy ravishda eski usullarni almashtirib turadi ^[4].

M.E.Porter (1990) "The Competitive Advantage of Nations" asarida innovatsion faoliyatni boshqarishda milliy omillar va strategiyalar muhimligini ko'rsatadi. Uning "Raqobat strategiyalari" asari korxonalarning global bozor sharoitida qanday strategiyalarni qo'llashlari mumkinligini aniqlashda yordam beradi ^[5].

E.Brynjolfsson va A.McAfee (2014) "The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies" asarida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qiladilar va korxonalar qanday qilib raqamli innovatsiyalarni qo'llash orqali yangi imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar ^[6].

C.M.Christensen (1997) "The Innovator's Dilemma: When New Technologies Cause Great Firms to Fail" asarida har qanday muvaffaqiyatli kompaniyalar ham yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni qabul qilishda qiyinchilikka duch kelishini va raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar qanday qilib yangi texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishlari mumkinligini aytib o'tadi ^[7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda nazariy va amaliy o'rganish, tizimli tahlil va yondashuv, taqqoslash, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish yondoshuvlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarishda xorijiy kompaniyalarning amaliy tajribasi tahlil qilindi. Quyidagi muvaffaqiyatli xorijiy kompaniyalar misollarida innovatsion yondashuvlar va ularning natijalari ko'rib chiqildi:

1. Amazon raqamli iqtisodiyotda texnologik investitsiyalarga katta e'tibor qaratadi. Kompaniya bulutli xizmatlar (AWS), sun'iy intellekt va big data tahlili sohalarida investitsiyalarni oshirishi yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, AWS xizmatlari orqali kompaniya yangi daromad manbalari yaratdi va boshqa kompaniyalar uchun raqamli platformalarni taklif qildi.

Amazon innovatsion madaniyatni shakllantirish uchun xodimlarni yangiliklarga rag'batlantiradi. Kompaniyaning "Day 1" falsafasi innovatsion madaniyatni qo'llab-quvvatlaydi va yangi g'oyalar va mahsulotlarni yaratishga qaratilgan.

Amazon ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va boshqa korxonalar bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Bu hamkorliklar yangi bilimlar va texnologiyalarni tezda o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, Amazonning Alexa rivojlanishida boshqa kompaniyalar bilan hamkorlik qilish strategiyasi muhim rol o'ynadi.

Amazonning raqamli platformalari, jumladan, e-tijorat va AWS yangi bozorlar ochish va mijozlar bilan samarali aloqa o'rnatishda muhim vositadir. Bu platformalar kompaniyaga global bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Amazon Prime xizmatlari, bulutli hisoblash (AWS) va e-tijoratdagi yangiliklari orqali yangi biznes modellari va strategiyalarini joriy etib, raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyat qozondi.



2. Tesla avtomobil sanoatida raqamli texnologiyalarni joriy etishda yetakchi hisoblanadi. Kompaniya avtonom haydash tizimlari, elektr transport vositalari va energiya saqlash tizimlariga katta mablag' sarflaydi. Bu investitsiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishda va yangi mahsulotlarni yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Tesla innovatsion madaniyatni shakllantirish uchun xodimlarini yangiliklarga rag'batlantiradi, shuningdek, yangi texnologiyalar va mahsulotlar yaratish jarayonini tezlashtirish uchun doimiy innovatsiyaga urg'u beradi.

Tesla ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va boshqa korxonalar bilan hamkorlikda ishlaydi. Bu hamkorliklar yangi texnologiyalar va bilimlarni tezda o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, Panasonic bilan hamkorlik davomida batareya texnologiyalari rivojlantirildi.

Tesla avtonom haydash tizimlari va onlayn yangilanish imkoniyatlari orqali raqamli platformalarni muvaffaqiyatli joriy etmoqda. Bu platformalar kompaniyaga global bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Tesla yangi biznes modellari va strategiyalarini joriy etish orqali innovatsiyalarni tezroq va samarali amalga oshirishga yordam beradi. Kompaniyaning onlayn sotuv modeli va avtonom haydash tizimlari bunga misoldir.

1-jadval: Kompaniyalar innovatsion faoliyati tahlili

Kompaniya	Texnologik investitsiyalar	Innovatsion madaniyat	Hamkorlik va tarmoq	Raqamli platformalar	Yangi biznes modellari joriy etish
Amazon	Bulutli xizmatlar, sun'iy intellekt va big data tahlili	"Day 1" falsafasi, yangiliklarga rag'batlantirish	Ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqa korxonalar bilan yaqin hamkorlik	E-tijorat va AWS	Prime xizmatlari, AWS
Tesla	Avtomobil sanoati uchun avtonom haydash tizimlari va elektr transport vositalari	Yangi texnologiyalar yaratishga urg'u berish	Panasonic bilan hamkorlikda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish	Avtomobil haydash tizimlari va onlayn innovatsiyalar	Onlayn sotuv modeli, avtonom haydash tizimlari
Google	Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt sohalar	"20 % Time" siyosati, xodimlarga yangi g'oyalar yaratish imkoniyati	Ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqa korxonalar bilan yaqin hamkorlik	Google Cloud va Google AI	Reklama modeli va bulutli hisoblash xizmatlari
Siemens	Sanoat 4.0 texnologiyalari, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish	Digital Industries Software dasturlari, yangi texnologiyalar yaratishga rag'batlantirish	Ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va boshqa korxonalar bilan yaqin hamkorlik	Digital Industries Software	Sanoat 4.0 texnologiyalari va raqamli transformatsiya dasturlari
Samsung	Raqamli qurilmalar, smartfonlar, televizorlar va maishiy texnikada innovatsiyalar	Innovatsion markazlar va dasturlar orqali yangi texnologiyalar yaratish	Ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va boshqa korxonalar bilan yaqin hamkorlik	Raqamli qurilmalar va xizmatlar	Raqamli qurilmalar va xizmatlar sohasidagi yangiliklar

3. Google raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt sohalarida katta mablag'ni tadqiqot va rivojlantirishga yo'naltiradi. Bu investitsiyalar kompaniyaning yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Google innovatsion madaniyatni shakllantirish uchun xodimlarini yangi g'oyalar yaratishga rag'batlantiradi. Kompaniyaning "20% Time" siyosati xodimlarga o'z g'oyalarini amalga oshirish imkonini beradi.

Google ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va boshqa korxonalar bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Bu hamkorliklar yangi bilimlar va texnologiyalarni tezda o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, Google AI rivojlantirishda boshqa tadqiqot markazlari bilan hamkorlik qilish muhim rol o'ynaydi.

Google Cloud va Google AI raqamli platformalari kompaniyaga yangi bozorlar ochish va mijozlar bilan samarali aloqa o'rnatishda yordam beradi. Bu platformalar global bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Google yangi biznes modellari va strategiyalarini joriy etish orqali innovatsiyalarni tezroq va samarali amalga oshiradi. Kompaniyaning reklama modeli va bulutli hisoblash xizmatlari bunga misoldir.



4. Siemens sanoat 4.0 texnologiyalarini qo'llash orqali ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamli transformatsiyani amalga oshirishda katta mablag' sarflaydi. Bu investitsiyalar, albatta, yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Siemens innovatsion madaniyatni shakllantirish uchun xodimlarini yangi texnologiyalar yaratishga rag'batlantiradi. Kompaniyaning Digital Industries Software dasturlari innovatsiyalarni joriy etishda yordam beradi.

Siemens ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va boshqa korxonalar bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Bu hamkorliklar yangi bilimlar va texnologiyalarni tezda o'zlashtirishga yordam beradi.

Siemens Digital Industries Software raqamli platformalari kompaniyaga yangi bozorlar ochish va mijozlar bilan samarali aloqa o'rnatishda yordam beradi. Bu platformalar global bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Siemens yangi biznes modellari va strategiyalarini joriy etish orqali innovatsiyalarni tezroq va samarali amalga oshiradi. Kompaniyaning sanoat 4.0 texnologiyalari va raqamli transformatsiya dasturlari bunga misoldir.

5. Samsung raqamli qurilmalar, jumladan, smartfonlar, televizorlar va maishiy texnikada yangi innovatsiyalarni joriy etish uchun katta mablag'larni tadqiqot va rivojlantirishga yo'naltiradi. Bu investitsiyalar yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Samsung innovatsion madaniyatni shakllantirish uchun xodimlarini yangi g'oyalar yaratishga rag'batlantiradi. Kompaniyaning innovatsion markazlari va dasturlari yangi texnologiyalar va mahsulotlarni yaratishda yordam beradi.

Samsung ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va boshqa korxonalar bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Bu hamkorliklar yangi bilimlar va texnologiyalarni tezda o'zlashtirishga yordam beradi.

Samsungning raqamli platformalari kompaniyaga yangi bozorlar ochish va mijozlar bilan samarali aloqa o'rnatishda yordam beradi. Bu platformalar global bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Samsung yangi biznes modellari va strategiyalarini joriy etish orqali innovatsiyalarni tezroq va samarali amalga oshiradi. Kompaniyaning raqamli qurilmalar va xizmatlar sohasidagi yangiliklari bunga yorqin misoldir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar uchun innovatsion faoliyatni samarali boshqarish, texnologik yangiliklarni qabul qilish, yangi bozor tendensiyalarini joriy etish va korxona ichida innovatsion madaniyatni shakllantirish muhimdir. Tadqiqotda ko'rib chiqilgan Amazon, Tesla, Google, Siemens va Samsung ushbu jihatlarida yuqori darajadagi muvaffaqiyatlarga erishgan xorijiy kompaniyalardir. Ular raqamli texnologiyalar, innovatsion madaniyat, keng ko'lamlı hamkorliklar, raqamli platformalarni joriy etish va yangi biznes modellari ishlab chiqish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga erishishgan.

Takliflar

1. Korxonalar raqamli texnologiyalar va yangi innovatsion yechimlarga investitsiya qilishni davom ettirishlari zarur. Bulutli xizmatlar, sun'iy intellekt, big data tahlili va blokcheyn kabi texnologiyalarga sarmoya kiritish tavsiya etiladi.
2. Korxonalar ichida innovatsion madaniyatni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash uchun xodimlarni rag'batlantirish va ularning ijodiy potensialini oshirish zarur. Xodimlarga yangi g'oyalar yaratish va tajribalar o'tkazish uchun zarur resurslar va imkoniyatlar berilishi kerak.
3. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun korxonalar ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va boshqa korxonalar bilan yaqin hamkorlikni kuchaytirishlari zarur. Bu hamkorliklar orqali yangi bilim va texnologiyalar tezroq o'zlashtiriladi va amaliyotga joriy etiladi.
4. Raqamli platformalar orqali korxonalar yangi bozorlarni ochish va mijozlar bilan samarali aloqa o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu platformalar, masalan, e-commerce, CRM tizimlari va mobil ilovalar korxonalar uchun zarur bo'lib, ularni joriy etish tavsiya etiladi.
5. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar yangi biznes modellari ishlab chiqish va joriy etish orqali tezroq va samarali natijalarga erishishlari mumkin. Masalan, subscription asosida xizmatlar, pay-per-use modellari va freemium strategiyalarini qo'llash tajribalari ko'rib chiqilishi mumkin.

Ushbu takliflar korxonalar uchun raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Raqamli transformatsiya jarayonida korxonalar ushbu strategiyalarni amalda qo'llash orqali yangi imkoniyatlar yaratish va o'z faoliyatlarini yanada takomillashtirishlari mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-yil. 22-dekabr, <http://uza.uz/uz/documents/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat>
2. G'ofurova U.F., Xayitboyev B.X. "Tadbirkorlikni innovatsion faoliyat asosida rivojlantirishning yo'llari"// "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 2019-yil 1-fevral.
3. Ergashev E.I., Yuzbayeva M.Z, Charshanbiyeva B.U "O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish yo'nalishlari" Scientific Journal Impact Factor 2023: 5.789 <http://sjifactor.com/passport.php?id=22258>
4. Schumpeter, J.A. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.
5. Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Free Press.
6. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W.W. Norton & Company.
7. Christensen, C.M. (1997). The Innovator's Dilemma: When New Technologies Cause Great Firms to Fail. Harvard Business Review Press.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.